



## NUTQDA NOVERBAL VOSITALARNING O'RNI

**F.A. Yakubova**

*O'zJOKU, O'zbek tili va adabiyoti  
kafedrasida katta o'qituvchisi*  
[feruza1471@gmail.com](mailto:feruza1471@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada notiqlik san'ating asosiy jihatlari tasvirlangan. Auditoriya tomonidan nutqni idrok etish sifati ko'p jihatdan notiq nutqining noverbal ko'rinishlarining xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Imo-ishoralar qimmatli ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bu tinglovchiga notiq haqida to'liq tasavvurga ega bo'lishga va ko'p jihatdan uning nutqi muvaffaqiyatini aniqlashga imkon beradi.

**Kalit so'zlar.** Notiq, notiqlik san'ati, talaffuz, nutq tuzishi, muvofiqlik, dalillarning mantiqiyliqi, ommaviy nutq, imo-ishora, nutqning jozibadorligi, obrazlilik, ishonchni ko'rsatish, mimika.

**Аннотация.** В этой статье описаны основные аспекты ораторского искусства. Качество восприятия речи аудиторией во многом будет зависеть от особенностей невербальных проявлений речи говорящего. Жесты содержат ценную информацию, которая позволяет слушателю получить полное представление о говорящем и во многом определить успех его речи.

**Ключевые слова.** Ораторское искусство, ораторское искусство, произношение, структура речи, последовательность, логичность аргументов, публичная речь, жест, привлекательность речи, образность, демонстрация уверенности, мимика.

**Annotation.** This article describes the main aspects of public speaking. The quality of speech perception by the audience largely depends on the characteristics of the nonverbal manifestations of the speaker's speech. Gestures contain valuable information that allows the listener to have a complete picture of the speaker and in many ways determine the success of his or her speech.

**Keywords.** Speaker, oratory, pronunciation, speech structure, consistency, logic of evidence, public speech, gesture, attractiveness of speech, figurativeness, demonstration of confidence, facial expressions.

Notiqlik san'ati ( ritorika) qadimgi Yunonistonda eramizdan avvalgi IV-V asrlarda paydo bo'lgan. Notiqlik murakkab san'at bo'lib, uni egallash kishidan qunt va chidam, malaka va tajriba talab etadi. Haqiqiy nutq katta mahorat va puxta tayyorgarlikning mahsulidir. Notiqqa bo'lgan ehtiyoj insoniyat tarixidagi ilk davlatchilikning shakllanishi bilan bog'liq. Oddiy, madaniy va savodli so'zlashni o'rgangan notiq, notiqlik san'atini egallashga birinchi qadamni qo'ygan hisoblanadi. Chiroyli va ma'noli nutq davlatni boshqarish, xalqni hokimiyat atrofida birlashtirish turli toifadagi odamlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish uchun asosiy vosita hisoblangan,





Kishilar chiroyli, mazmundor nutq masalasi bilan juda qadimdan qiziqib keladilar. Qadimgi san'at turlaridan biri notiqlik dastlab Misr, Assuriya, Bobilon kabi qadimiy davlatlarda rivoj topgan bo'lsa, keyinchalik Gretsiya (Yunoniston)da va Rimda rivojlandi, nazariy asoslari yaratildi. Nutq oldiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqildi. Perekli, Kleon, Lisi, Demosfen, Gippered kabi davlat arboblari notiqlikni san'at darajasiga ko'tardilar. Notiqlik - amaliy jihatdan chiroyli nutq tuzishning qonuniyatlari, sirlari, til me'yorlari, nutqning sifatlari, nutqiy uslublar, nutqda uchrashi mumkin bo'lgan nuqsonlar va talaffuzga doir muammolarni xalq etish yuzasidan baxs yuritadi (1)

Notiq-nutq so'zlaydigan odam, yani u so'z ustasi, notiqlik mahoratiga ega shaxs. Notiqlik bu san'at, birinchi navbatda, notiq jamoa oldida o'z mahoratini yuqori darajada ko'rsata olishi tushuniladi.

Notiqning o'z nutqi orqali tinglovchilarda qanday taassurot qoldirishi juda muhimdir. Ma'ruzachi tashqi ko'rinishi orqali tinglovchilarda o'ziga bo'lgan hurmatni orttirishi yoki unga bo'lgan ishonchni yo'qotishi mumkin, natijada ayditoriya undan uzilib qoladi. Ma'ruza juda qiziqarli bo'lsa-da, notiq va ayditoriya o'rtasida to'siq paydo bo'ladi va bu to'siq tinglovchilar tomonidan ma'lumotni idrok etishga xalaqit beradi.(2) Tinglovchilar ma'ruzachining tashqi ko'rinishi, yuz ifodasiga diqqat bilan qarashadi: u omma oldida qanday turadi, uning yuz ifodasi qanday, natijada notiq nutqning chorak qismi vizual tarzda qabul qilinadi.

Notiqning tashqi ko'rinishidagi eng yaxshi xususiyati - bu uning to'g'ri kiyim tahlashida ko'rinadi. Noriqning kiyimi sifatli, mavsumga mos, toza bo'lishi kerak, yelka va qo'llarning erkin harakatini cheklamasligi lozim. Tinglovchining diqqatini chalg'itmaslik uchun notiqning zargarlik buyumlari, tugmalar, ko'zoynak ramkalari juda yorqin bo'lmasligi kerak. Agar ma'ruzachi omma oldida uzoq vaqt turishi kerak bo'lsa, u oyoqlariga yaxshi mos keladigan, tor bo'lmagan, poyabzal tanlashi kerak. Notiq uchun noqulay bo'lgan oyoq kiyim uning nafas olishini qiyinlashtiradi, chunki ayditoriya oldida gapirayotgan notiq qaddini g'oz tutishi, muvozanatini saqlashi lozim. Notiqning nafaqat tashqi ko'rinish, balki uning odob-axloq ham muhim ahamiyatga ega. Omma oldida nutq so'zlashning asosiy fazilatlari – yangillikni yetkazish, g'ayrat, ishonch va auditoriya bilan do'stona munosabat o'rnatish. Ma'ruzachi tinglovchilar bilan do'stona va ayni paytda ishbilarmonlik muhitini yaratish mahoratni egallashi kerak





Omma oldida nutq so'zlashning asosiy talablar:

1. Grammatik to'g'rilik.
2. Aniqlik
3. Muvofiqlik.
4. Originallik.
5. Aniq talaffuz, yaxshi ishlab chiqarilgan ovoz, nutq tezligi, ovoz kuchining mutanosibligi.
6. Taqdim etilgan dalillarning mantiqiyliqi.
7. Nutq tilining ravshanligi. Ma'ruzachining so'z boyligi bo'lishi kerak.
8. Taqdimotning soddaligi va ravshanligi.
9. Nutqlarning qisqaligi.
10. Ifodalarning tasviriyligi, nutqning jozibadorligi, obrazlilik.

Tajribasiz notiqlar nutqda asosiy unsur nutqning mazmuni ekanligiga jiddiy ishonadilar. Ularning fikricha, eng muhimi, munosib va jozibali matn tayyorlash va uni tinglovchigaga yetkazishdir. Ba'zilar ommaviy nutqda ovoz va nutq uslubining muhimligini ham tan olishadi. Ammo ko'p notiqlar imo-ishoralar kabi muhim vositani butunlay e'tiborsiz qoldiradilar.

Auditoriya tomonidan nutqni idrok etilishi ko'p jihatdan notiq nutqning noverbal ko'rinishlarining xususiyatlariga ham bog'liq bo'ladi.

Mimika - bu yuz mushaklarining ifodali harakati bo'lib, ularning har biri ba'zi insoniy tuyg'ularni namoyon bo'lish shakllari - quvonch, qayg'u, hafsalasi pir bo'lish, qoniqish va hokazolarni ifodalaydi. Yuz ifodalari odamlar o'rtasidagi muloqot usullaridan biridir(3)

Insonning yuz ifodalari turli xil his-tuyg'ularni ifodalashi bilan farqlanadi. Masalan, baxt ifodasi -ko'z biroz siqilgan holatda, yonoqlar ko'tariladi. Ajablanish ifodasi - og'iz biroz ochiq, qoshlar ko'tarilgan, ko'zlar katta ochilgan, Qo'rquv ifodasi - yuqori ko'z qovoqlari, qoshlar ko'tariladi, lablar biroz cho'ziladi. Nafrat ifodasi- og'iz burchagi bir tomonga biroz ko'tariladi. G'amginlik ifodasi - yuqori ko'z qovoqlari bir oz cho'kadi, og'izning burchaklari biroz pastga tushadi. Nafrat ifodasi- ajinlangan yuz ifodasi, yuqori lab ko'tariladi. G'azab ifodasi - qoshlar tushirilgan va birlashtirilgan og'iz yopiq, lablar toraygan holda bo'ladi.(4)





Imo-ishoralar universal aloqa vositasi bo'lib, ular har bir madaniyatda mavjud. Hatto qadimgi yunon notig'i Demosfen ham imo-ishoralarni ma'ruzachi uchun juda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlagan.

Imo-ishoralar (jestikulyatsiya) odatda qo'l harakatlaridan iborat deb hisoblanadi, bunday xarakterlar aytilgan so'zlarning ma'nosini ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Psixologiya va ommaviy nutqda imo-ishoralarning besh turi mavjud, keling, ularni ko'rib chiqaylik

Notiqning imo-ishoralari, qo'l harakatlari omma oldida so'zlangan nutqning ifodaliligini oshiradi va notiqni shaxs sifatida tan olinishida muhim ahamiyatga ega. Aslida, imo-ishoralar ham nutqdir, faqat tovushsiz. Shu o'rinda eslatib o'tish lozimki, imo-ishoralar kar va soqovlar tilida(surdo tili) ham qo'llaniladi, lekin bu holatda imo-ishoralar harflar, so'zlar va iboralarni ifodalaydi Notiqning imo-ishoralarini bunga hech qanday aloqasi yo'q. Notiq imo-ishoralarning juda aniq maqsadlari bor. Keling, asosiylarini ko'rib chiqamiz;

-Ishonchni ko'rsatish. Tajribali notiq uchun ham tinglovchilar markaziga chiqish katta stressdir. Aydtoriya notiqning ahvolini uning xatti-harakatlari orqali idrok etadi. Agar notiq egilib, boshini pastga qaratib, kichik qadamlar bilan yursa, uni tinglovchilar jiddiy qabul qilishmaydi. Aksincha, notiq shaxdam qadamlar bilan, qaddini tik tutib, sahnaga xotirjam chiqib kelsa tinglovchi oldidagi birinchi hurmatni qozonadi

- Omma e'tiborini jalb qilish va uni saqlash. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aydtoriya quloq orqali ma'lumotning 5-6 foizidan ko'pini qabul qilmaydi. Agar ma'lumot adekvat imo-ishoralar bilan ko'rsatilsa, idrok darajasi 30-50% gacha oshadi. Notiqning imo-ishoralari tinglovchilarning e'tiborini jalb qilishga yordam beradi. Gap shundaki, harakatlanuvchi jismlarni kuzatib borish inson tabiatiga xosdir. Agar ma'ruzach harakatsiz bo'lsa,. faqat ma'lumot olishga qiziqqan tinglovchi uni diqqat bilan tinglashlari mumkin. Agar ma'ruzachi harakat qilsa, qo'llarining holati bilan fikrlarini ifoda etishga yordam bersa, ma'ruza qiziqarli bo'ladi.

- Tinglovchilarning e'tiborini eng muhim narsalarga qaratish. Imo-ishoralar intonatsiya bilan birga nutqda semantik urg'ularni joylashtirishga yordam beradi. Notiq qo'l harakati orqali eslab qoladigan belgilarni va undov belgilarini qo'yganga o'xshaydi.

- Faol fikr yuritishga yordam berish. Imo-ishoralar ma'ruzachining diqqatini jamlashga yordam beradi, bundan tashqari, u zo'riqish va charchoqni engillashtiradi,





ko'plab tovushlarning talaffuzini yaxshilaydi va lablar siqilishini yo'q qiladi. Natijada, nutq yanada tushunarli va to'liq bo'ladi. Gap shundaki, imo-ishoralar miyadagi nutq markazini faollashtiradi. Buning yordamida so'zlarning to'g'ri tartibi ta'minlanadi va gaplarning mazmunligi ortib boradi. Miya yanada samarali ishlaydi.

Og'zaki va og'zaki bo'lmagan aloqa vositalarining kombinatsiyasi his-tuyg'ularni aniq ifoda etib, fikrini tinglovchiga to'liq etkazishga imkon beradi. Og'zaki va og'zaki bo'lmagan o'zaro ta'sir qoidalarini bilish ko'plab kasb egalari uchun zarur.

Shunday qilib, to'g'ri imo-ishoralar notiqqa ajoyib taqdimot qilishga yordam beradi va tinglovchilar undan zavqlanadilar va taqdim etilgan ma'lumotlarni uzoq vaqt eslab qoladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. La'lixon Muhammadjonova. Ritorika. T-2019 y. 5-7 b.
2. Leshutina. Ritorika. Notiqlik san'ati. T."Yosh kuch"-2021 y. 42-48b.
3. R. Jumaniyozov. Siz notiq bo'lmoqchimisiz? T-2019y19-21b
4. Leshutina. Ritorika. Notiqlik san'ati. T."Yosh kuch"-2021 y. 56-61b.
5. Луцинская А. В. Внешний вид оратора, его речь мимика, жесты. Вестник Науки и Творчества. М-2020.
6. Поль Л. Сопер. Основы искусства речи. – М.: Яхтсмен, 2005.

